

**ILMIY TADQIQOT ISHI (MAQOLA)DA QISQARTMALAR BERISH XUSUSIDA
AMALIY KO'RSATMALAR**

Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qisqartmalarning ahamiyati, ilmiy tadqiqot ishi (maqola)ga qisqartmalar berish haqida amaliy ko'rsatmalar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Qisqartma, shartli qisqartma, ismli qisqartma, raqamli qisqartma, aralash qisqartma, havola, havola o'rinlari, ilmiy odob, plagiat, manba imlosi.

Ilmiy ishda qisqartmalarni qanday berish kerak, havola va bibliografik ma'lumotlarni qanday shakllantirish kerak, degan masala ham bu faoliyatdagi muhim jarayonlardan biri. Umuman olganda har qanday tadqiqotda (maqola, ma'ruza matni kabilarda) bu jarayon muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu bir qarashda ilmiy ish yozuvchilar tomonidan ikkinchi darajali masaladagi ko'rilsa-da, ilmiy jurnallar, to'plamlar, dissertatsiyalarni, bitiruv malakaviy ishlarni qabul qilib oluvchi hay'at tomonidan alohida e'tibor beriladigan muhim bir jihatidir. Tadqiqotchilar, bo'lajak tadqiqotchilar bo'lgan talabalar diqqat bilan ilmiy ishlarining mana shu jihatlarini shakllantirishlari lozim bo'ladi. Albatta, bunda ko'rsatma, yo'llanma berish taqozo etiladi. Ilmiy ishlar bilan tanishayotgan talabalar ko'pincha mana shu qisqartmalarga, havola va bibliografik ma'lumotlarga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Bu ma'lumotlarda har bir nuqta, vergul, qavs, nuqtali vergul, tire hammasi tadqiqotning rasmiy tomonida juda katta e'tiborni talab qiladi. Ularning o'rnatilgan qat'iy qoidalari bor. Bu qoidalarga rioya qilmaslik ilmiy ishlarning tegishli komissiya tomonidan, tahrir hay'ati tomonidan salbiy baholanish va qaytarilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ilmiy ishni yozish qanchalik muhim bo'lsa, uni rasmiylashtirish, uning shaklini qoidalardagidek qilib tayyorlash juda muhim amaliyot, faoliyatimizning muhim tarkibiy qismi. Bunga e'tibor berish tadqiqotchining ilmiy salohiyati qanday shakllanganligidan dalolat beradi.

Har qanday ilmiy tadqiqot tadqiqotchi tomonidan mustaqil holda bajarilgan bo'lishi kerak. Bu yerda biz plagiat, plagiatlik degan tushunchalarga tayanamiz. Hech qachon tadqiqotchi bir satr bo'lsin, bir jumla bo'lsin, boshqa tadqiqotlardan ko'chirishi ularning mazmunini o'zlashtirib, o'z fikriga aylantirishi mumkin emas, taqiqlanadi. Oliy attestatsiya tomonidan tasdiqlangan, o'rnatilgan qoidalarga muvofiq, agar tadqiqotchi boshqalarning tadqiqotlaridan ilmiy odobga rioya qilmasdan ko'r-ko'rona ko'chirgan bo'lsa, u maxsus dasturlar asosida aniqlanadi va ish rad etiladi, ya'ni qaytariladi. Agar bu ish qaytarilgandan keyin qayta tuzatilmasdan yana bunday o'rinlar ishda kuzatiladigan bo'lsa, maxsus dasturlar buni yana aniqlab, yuzaga chiqarib bersa, bunday tadqiqot yana rad etiladi va o'rnatilgan qoidaga muvofiq tadqiqotchi bundan keyin tadqiqot olib borishdan mahrum etiladi. Shuning uchun ilmiy qoidalarga qat'iy rioya qilish kerak. O'zgalarning fikridan foydalansa, ularga albatta ishora qilish kerak. Havola berishi kerak, iqtiboslar aniq ko'rsatilgan bo'lishi va hech qachon fikrlar o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin emas. Agar o'zlashtirilgan bo'lsa, uning manbalari ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Ilmiy iqtibos 2 xil bo'ladi. Bir kishining fikrini aynan, so'zma-so'z olish va bunda iqtibos qo'shtirnoq ichiga olinib, havolada ushbu adabiyotning muallifi, nomi, nashriyoti va sahifasi aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Agar o'zgalarning fikri o'zlashtirma gap sifatida olingan bo'lsa, bunda sahifa tagida "qarang" degan belgi qo'yilib, o'sha asarning sahifasi, nomi aniq ko'rsatilishi albatta shart. Ilmiy tadqiqotda qisqartmalar alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun biz birinchi navbatda ilmiy adabiyotda qisqartmalar qanday berilishi kerak, degan masala bilan shug'ullanadigan bo'lsak,

undan keyin havola berishning yo‘l-yo‘riqlari, qoidalari, bibliografik ma‘lumotlarning rasmiylashtirilishi bo‘yicha ma‘lumot berishga harakat qilamiz. Ilmiy tadqiqotda qisqartmalar katta ahamiyatga ega. Chunki barcha tadqiqotlarda hajm masalasi yetakchidir. Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD va fan doktori dissertatsiyalari hajmining yuqori chegarasi aniq belgilab berilgan. Falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinayotgan dissertatsiyaning maksimal hajmi 120 betdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan. Doktorlik dissertatsiyalarida esa bu hajm 250 sahifani tashkil qiladi. Albatta, ijtimoiy-gumanitar fanlarda tadqiqotchi bu qoidadan biroz chiqishi, ma‘lumi bir foiz yuqoriga ko‘tarilishi mumkin. Ammo belgilangan hajm falsafa doktorlik dissertatsiyalarida 120 bet va doktorlik dissertatsiyalarida 250 bet qilib belgilangan va iloji boricha mana shu chegaradan chetga chiqmaslik talab etiladi. Ilmiy maqola va tezislarda ham mana shunday chegaralar belgilab berilgan. Bu chegaralarda hajmni saqlash va uning belgilangan chegarasiga rioya qilish uchun qisqartmalardan unumli foydalaniladi. Qisqartmalar ana shu hajm qoidasiga rioya qilishga olib keladi. Ixchamlik nuqtayi nazaridan takrorlanib turuvchi manba va tushunchalarni tadqiqotchi shartli qisqartmalar bilan beradi. Ko‘pincha tushunchalarni ixcham va yorqin aks ettiruvchi formula, jadvallarda ham shartli qisqartmalar qo‘llanadi. Misol uchun, biz darsliklarida o‘qiganimizda kimyo, matematika, fizika biologiya fanlarida shartli qisqartmalarga juda ko‘p duch kelganmiz.

I. Kimyoda N (vodorod), O (kislород), NaCl (osh tuzi); matematikada “+” (qo‘shish), “-“ (ayirish), “√” (ildiz), “a²” (sonning kvadrati); fizikada F(kuch), B(tok kuchlanishi), W(tok kuchi); tilshunoslikda V – fe‘l, S – ega, P – kesim, Wpm o‘zbek struktural tilshunosligida sodda gap tushunchasini berish uchun qo‘llanadi. Ana bu qisqartmalarni berish va o‘qish farqlanadi. Masalan “N” berilganda, uni “en” deb o‘qishimiz kerak emas, u yozuvda tejamkorlik va ixchamlik talabi nuqtayi nazaridan ana shu tegishli bosh harf bilan beriladi. Lekin biz uni o‘qiganimizda “vodorod” deb o‘qishimiz kerak. “H²O” qisqartma berilgan biz uni “suv molekulasi” yoki “ikki atom vodorod, bir atom kislorod” deb o‘qishimiz kerak. Shartli belgilarni yozish va o‘qish o‘ziga xos bo‘ladi. Masalan, tilshunosligimizda Wpm – sodda gap tushunchasini berish uchun ishlatiladi. Bu yerda W – har qanday atov birligi, Pm esa kesimlik ko‘rsatgichi ma‘nolarini beradi. Buni biz “Dablyu Pi em” deb o‘qimasdan “kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan atov birligi” deb yoyiq holda o‘qishimiz kerak bo‘ladi. Bu qisqartmalarning birinchi turiga misol.

II. Qisqartmalarning ikkinchi turi bor. Tadqiqotlarimizda biz badiiy asarlardan misollar olamiz. Bu badiiy asarlarni ham qavs ichida misoldan keyin berish kerak. Agar biz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan lingvistik fikrimizni dalillash uchun misol oladigan bo‘lsak, biz endi uni qavs ichida “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani” deb yozib o‘tirishimiz kerak emas. Bu ko‘p joyni talab qiladi. Shuning uchun biz shartli belgi va qisqartmalardan foydalanamiz. Deylik, biz tadqiqotimizda Abdulla Qodiriyning 3ta romanidan foydalanganmiz: “O‘tkan kunlari” romani, “Mehrobdan chayon” romani, “Obid ketmon” romani. Ana shu romanlarni biz shartli belgilar bilan, maxsus qisqartmalar bilan belgilab olamiz. “O‘tkan kunlar” romanini shartli ravishda RI (ya‘ni birinchi roman), RII, RIII esa uning “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon” romanlarining shartli qisqartmalari bo‘ladi. Yoki buni boshqacha qilib A¹, A², A³ deb ham, AQ-I, AQ-II, AQ-III deb ham, yoki bo‘lmasa O‘K, MCH, ObK deb ham shartli qisqartma sifatida berish mumkin. Albatta, bizning tadqiqotimizning boshida yoki oxirida ana shu shartli qisqartmalar yoyilgan holda beriladi. Masalan RI – Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlari romani, RII – Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romani, RII – Abdulla Qodiriy “Obid ketmon” romani tarzida shartli qisqartmalar o‘quvchiga tushuntirib, yoyib beriladi va ilmiy tadqiqotni o‘qiyotganda o‘quvchi uchun qulaylik, osonlik yaratish uchun shunday qilinadi. Bu foydalanilgan qisqartmalar ishning kirish qismidan oldin, mundarijadan keyin, ilmiy maqolalarda esa maqola oxirida maxsus sarlavha (“Shartli qisqartmalar”) ostida to‘liq va aniq ochib berilishi

shart. Bu hodisa sizlar uchun begona emas, maktab darsliklarida kuzatgan bo'lsangiz, ona tili kitoblarida olingan misollar oxirida shu kitobning mualliflarining ism familiyalari bosh harflarda berilgan. Masalan, Abdulla Oripov bo'lsa, A.O; Erkin Vohidov bo'lsa, E.V tarzida keltirilgan. Agar ikkita muallifning Anvar Obidjon va Abdulla Oripov kabi bosh harflari o'xshash bo'lib qoladigan bo'lsa, uni farqlash uchun muallifga izn berilgan: An.O – Anvar Obidjon, A.O – Abdulla Oripov. Ana shunday farqlab berish kerakki, o'quvchi shartli qisqartmalarda noaniqliklarga duch kelmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>